

IMPROVEMENT OF PRIMARY EDUCATION WITHIN THE FRAMEWORK OF THE STRATEGY "UZBEKISTAN - 2030" ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH

Nazarova Dilnoza Eraliyevna

Associate Professor of the Department of History, Nizami

State University of Education, Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences

Mamatkobilova Mekhriniso Abduganiyevna

Master's student of Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

Annotatsiya: Mazkur maqolada “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida boshlang‘ich ta’lim tizimini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda fanlararo integratsiya orqali o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish, ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati asoslab beriladi. Natijalar integrativ yondashuv strategik maqsadlarni amalga oshirishda samarali metodik vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: integrativ yondashuv, boshlang‘ich ta’lim, strategiya, fanlararo integratsiya, kompetensiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования начального образования на основе интегративного подхода в рамках стратегии Узбекистан – 2030 . Обоснована роль межпредметной интеграции в формировании ключевых компетенций учащихся, повышении качества образования и внедрении современных педагогических технологий. Результаты исследования показывают, что интегративный подход является эффективным инструментом реализации стратегических целей.

Ключевые слова: интегративный подход, начальное образование, междисциплинарная интеграция, стратегия, компетенции.

Abstract: This article examines the improvement of primary education based on an integrative approach within the framework of the “Uzbekistan – 2030” strategy. The study substantiates the importance of interdisciplinary integration in developing students’ competence, improving educational quality, and implementing modern pedagogical technologies. The results indicate that the integrative approach serves as an effective methodological tool for achieving strategic educational goals.

Keywords: integrative approach, primary education, interdisciplinary integration, strategy, competencies.

KIRISH.

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi

PF-158-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab berdi. Strategiyaning “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish” deb nomlangan birinchi ustuvor yo‘nalishida ta‘lim sifatini tubdan isloh qilish asosiy maqsad qilib olingan. Strategiyada ta‘lim tizimini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Xususan, boshlang‘ich ta‘lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat savodxonligini oshirish, balki ularda “4K” ko‘nikmalarini (kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativlik va kritik fikrlash) shakllantirish dolzarb vazifadir. An‘anaviy ta‘limda fanlar orasidagi “sun‘iy devorlar” o‘quvchining dunyoni yaxlit idrok etishiga xalaqit beradi. Integrativ yondashuv esa ushbu muommoni hal qiluvchi, fanlarni yagona mantiqiy tizimga birlashtiruvchi innovatsion metodologiya hisoblanadi. Strategiyada, xususan, umumiy o‘rta ta‘lim tizimida :

- zamonaviy darsliklar yaratish (700 ga yaqin)
- multimedia dasturlarini joriy etish (1000 ta)
- pedagoglar malakasini oshirish (500 ming nafargacha) kabi aniq ko‘rsatkichlar belgilangan.

Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish integrativ yondashuvni ta‘lim jarayoniga joriy etishni talab etadi. Chunki integratsiya o‘quvchilarda bilimlarni yaxlit tizim sifatida shakllantiradi.

ASOSIY QISM

Integrativ yondashuv ta‘lim jarayonida turli fanlarni o‘zaro bog‘liq holda o‘qitish orqali o‘quvchilarda yaxlit dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. An‘anaviy ta‘lim tizimida fanlar alohida-alohida o‘qitilishi natijasida bilimlar parchalanib qoladi. Integratsiya esa bu muommoni bartaraf etib, bilimlarni yagona tizimga keltiradi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinflarda fanlararo integratsiyani qo‘llash o‘quvchilarning bilimni anglash darajasini sezilarli oshiradi. Masalan, matematika va ona tili fanlarini integratsiyalash orqali masala matnlarini tahlil qilishda o‘quvchilarning tushunish darajasi 20-30 foizga yuqorilagan. Xuddi shuningdek, tabiiy fanlar va texnologiya fanlarini bog‘lash orqali o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalar rivojlanadi. Integrativ yondashuvning yana bir muhim jihati – u o‘quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantiradi. Zamonaviy ta‘lim standartlari aynan shu kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Xalqaro baholash dasturlari, jumladan, PISA tadqiqotlari ham o‘quvchilarning bilimni real hayotda qo‘llay olish qobiliyatini baholaydi. Integrativ ta‘lim esa xuddi shu ko‘nikmani rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, integrativ yondashuvni amaliyotga joriy etishda ayrim muommolar ham mavjud. Avvalo, barcha o‘qituvchilar ham integratsiyalashgan darslarni tashkil etish bo‘yicha yetarli metodik tayyorgarlikka ega emas. Ikkinchidan, mavjud o‘quv dasturlarida fanlararo bog‘liqlik yetarli darajada aks ettirilmagan. Uchinchidan, metodik qo‘llanmalar va didaktik materiallar yetishmaydi.

Mazkur muommolarni hal etish uchun bir qator ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish mumkin. Jumladan, o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimida integrativ ta‘lim metodikasiga alohida e‘tibor qaratish lozim. Shuningdek, yangi avlod o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda fanlararo uyg‘unlikni

asosiy prinsip sifatida belgilash zarur. Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish ham integrativ yondashuvni samarali joriy etishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida integrativ metodik tizimni raqamli ta'lim resurslarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Multimedia taqdimotlari, interaktiv platformalar, virtual laboratoriyalar, animatsion dasturlar fanlararo integratsiyani vizual va amaliy jihatdan namoyon etish imkonini beradi. Bu vositalar murakkab tushunchalarni soddalashtirib, o'quvchilarning bilish faolligini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, STEAM ta'lim elementlarini boshlang'ich ta'limga moslashtirib integratsiya qilish metodik yangilik sifatida e'tirof etilmoqda. Bunda fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika yo'nalishlari yagona o'quv topshirig'i doirasida uyg'unlashtiriladi. Masalan, oddiy konstruktor maketini yaratish jarayonida o'quvchi o'lchash va hisoblash (matematika), material xossalarini anglash (tabiiy fan), bezak va dizayn (san'at), natijani og'zaki taqdim etish (ona tili) ko'nikmalarini bir vaqtda qo'llaydi. Bu esa kompetensiyaviy yondashuvni amalda ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari integrativ darslarni tashkil etishda quyidagi modellardan foydalanishlari mumkin:

Integratsiya turi	Tavsifi	Misol
Gorizontal	Bir sinf doirasida turli fanlarni bog'lash	“ona tili” va “tabiiy fanlar” fanlarida “Bahor” mavzusini birga o'tish
Vertikal	Mavzularni sinfdan sinfga chuqurlashib borish tartibida bog'lash	Tabiat hodisalarini 1-sinfdan 4-sinfgacha murakkablashib borishi
Mavzuli (tematik)	Ma'lum bir global muammo atrofida birlashish	“Ekologiya va biz” mavzusida rasm chizish, hisoblash, matn yozish va muommolarga yechim izlash

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, “O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida boshlang'ich ta'limni integrativ yondashuv asosida takomillashtirish ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish bevosita boshlang'ich ta'limning qanchalik samarali tashkil etilishiga bog'liq. Integrativ yondashuv o'quvchilarda bilimlarning yaxlit tizimini shakllantiradi, tanqidiy va kreativ fikrlashni o'stiradi hamda ta'lim samaradorligini oshiradi. Kelgusida, boshlang'ich ta'lim sohasini yana-da yuksaltirish uchun fanlararo integratsiyaning ko'lamini kengaytirish, metodik ta'minotini kuchaytirish va o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish muhim vazifa bo'lib qoladi. Bu esa, o'z navbatida Yangi O'zbekistonning intellektual poydevorini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.
2. Davlat ta‘lim standartlari (boshlang‘ich ta‘lim).
3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. “Boshlang‘ich ta‘limning integratsiyalashgan pedagogikasi”. Toshkent, 2009.
4. OECD. PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. – Paris: OECD Publishing, 2023.
5. Bybee, R.W. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities.- Arlington: NSTA Press, 2013.
6. Yakovleva, E.L. Integrativ yondashuv asosida ta‘lim samaradorligini oshirish // Pedagogika jurnali. – 2018. – №4. – B . 45-52.

